

## TIRILISH VA CHINOR ROMANLARIDA INSON KONSEPSIYASI MASALASI

*Kamolova Sadoqat O'lmasali qizi*  
tel: (90)623-35-23

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Tirilish va Chinor romanlarida inson konsepsiyasi masalasi, insonning yashashdan maqsadi va insonga taqdim etilgan imkoniyatlar haqida bahs yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Inson, manfaat, qaror, jamiyat, taraqqiyot, ayol, muhit, sud, tarbiya, vijdon, qalb, insoniylik

**Abstract:** This article discusses the issue of human concept, the purpose of human life and the opportunities presented to man in the novels Tirilish and Chinor.

**Key words:** Man, interest, decision, society, development, woman, environment, court, education, conscience, soul, humanity

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос о понятии человека, цели человеческой жизни и возможностях, представленных человеку в романах Тирилиш и Чинор.

**Ключевые слова:** Мужчина, интерес, решение, общество, развитие, женщина, окружающая среда, суд, образование, совесть, душа, человечность.

Inson shunday bir xilqatki, u dunyoga kelgach har bir bosgan qadami ortidan bir yonida gunoh va yana bir yonida savob deb atalgan xurjunni to‘ldirish bilan umrini o‘tkazadi. Va yakunda kimdadir gunoh, kimdadir savob xurjuni og‘ir keladi. Gunoh orttirish qanchalik oson bo‘lsa, savob amal ham shunchalik oson, biroq ba‘zan inson gunohga shunchalar berilib ketganidan ikkinchi bir xurjuni borligini va uning ichi bo‘sh qolayotganini unutib qo‘yadi. Mana shu qobiq ichida yashayotgan kunida shunday bir voqeа yuz beradiki, u endi bu qopiqni yorib chiqishga urina boshlaydi va qayta tiriladi. Uning qalbi, ongi, e’tiqodi, iymoni uyg‘onadi. Bir narsaga ishonch berasan-u, keyin u sen o‘ylagandek bo‘lib chiqmasa, ikkilanib qolasan kishi. Nega bu yo‘lga kirdim? Sabab nimada edi? Oldin bu qay holatda edi-yu, endi qay holatga keldi? Kelgunicha nimalar yuz berdi? Men qachon bu holatga tushdim?! kabi bir qancha savollar qurshovida qoladi. Gunohlari ko‘z oldidan kino tasmasidek o‘tarkan, o‘z-o‘zidan uyaladi. Endi uning oldida bittagina maqsad bor. Bu ham bo‘lsa shu savollarga javob izlash va yaxshi ishlar hurjunini to‘ldirish. Shunda bu qanchalar o‘zgacha tuyg‘u ekanini his etadi. Zeroki, insonning hayotdagi konsepsiysi ham aynan shundan iborat. Shu o‘rinda konsepsiya so‘ziga izoh berib o‘tish o‘rinli, albatta. Konsepsiya majmua, tizim ma’nolarini ifodalaydi. Adabiyotda konsepsiya biror asarning g‘oyasini, badiiy asarning mohiyatini, ijodkorning “meni”ni ifodalaydi. Biroq badiiy asar konsepsiysi

ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo‘lishi mumkin. Ba’zan muallif mo‘jaliga zid holat yuz bersa ham, mohiyat e’tibori bilan asar o‘z konsepsiyasiga ko‘ra muallifning badiiy-estetik olamiga tegishli bo‘ladi. O‘quvchining ma’naviy-ruhiy saviyasi, tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqqan holda badiiy asar konsepsiysi alohida ta’kidlanib, ochiq-oydin ifoda etiladi. Inson va borliq mohiyatiga ko‘ra, konsepsiysi bir butunlikni tashkil etadi. Masalani muayyan ijodkorning o‘z konsepsiysi yoki alohida olingen haqiqiy san’at asarining konsepsiysi tarzida qo‘yish ham mumkin. Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiysi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash mexanizmi — usuli bo‘lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san’at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o‘rnini hamda o‘quvchilar ommasiga ta’sir etish darajasini belgilaydi.<sup>1</sup> Hozirgi kunda konsepsiysi haqida bir qancha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Misol sifatida Hakimjon Karimovning “XX asr adabiyotida inson konsepsiysi” kitobi chop etilgan bo‘lsa, 2021-yildan beri “Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida inson konsepsiysi” mavzusida Sa’dulla Quronov doktorlik dissertatsiyasi ustida ishlamoqda.

Hakimjon Karimovning “XX asr adabiyotida inson konsepsiysi” asarining kirish qismida L. S. Lixachevning inson haqidagi judayam chiroyli fikri keltiriladi. Ma’lumki, hayotdagi har bir o‘zgarish inson faoliyatisiz kechmaydi. Barcha o‘zgarishlar, yaratishlar inson say-harakati, uning dunyoqarashi, konsepsiyasiga bog‘liq. “Akademik L.S. Lixachev qayd etganidek, “davr insonni chetlab, hech narsa yarata olmaydi. Davr inson va uning maqsadi orqali ta’sir omiliga aylanadi. Bunda u har kimga har xil ta’sir etadi. Chunki turli davrda insonlarning jamiyatda tutgan o‘rni turlichadir.”<sup>2</sup> Inson tushunchasi turlicha va adabiyotda insonning umuminsoniy abadiyatga daxldor tomonlari ko‘proq olinadi. Misol uchun: inson-fe'l-atvor, inson-shaxs, inson-qahramon kabi. Ushbu dissertatsiya ishidan ko‘zlangan asosiy maqsad ham ikki ijodkor qahramonlarining umuminsoniy qadriyatlarini ochish borasidagi jamiyat va inson mohiyatini ochib berishdan iborat. Ya’ni inson konsepsiyasiga jamiyatning, davrning ta’siri, shuningdek, davr konsepsiyasiga inson ta’sirini o‘rganiladi. Ijodkor qaysi davrni yozmasin, ana shu davr ruhini qahramoniga singdiradi. Shuningdek, inson konsepsiysi, yozuvchi faoliyatining individul tomonini, ijodiy individualligini va hayotni o‘zi xos tarzda his etishni ham ifodalaydi. Demakki, inson konsepsiyasini o‘rganish adib mahoratini, adabiyot olamiga qo‘sghan hissasini, butun adabiy jarayonini o‘rganish deganidir. Tuzumni yoritishda yuzaga kelgan konfliktlarni berishi ham inson konsepsiyasining mohiyatlaridan biridir.

Ijodkorning o‘zi yashagan davr bilan bog‘lagan holda asar yozishi tabiiy. Chunki u o‘sha muhitni his qiladi, og‘riqni sezadi, yuragidan o‘tkazadi. Rus adabiyoti vakili Tolstoyning “Tirilish” romanida inson va jamiyat o‘rtasida turgan bir qancha

<sup>1</sup> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<sup>2</sup> Лихачев Д.С. Текстология: На материалах русской литературы X-XVII веков.-Л,-1983,-С.37.

muammolar ham yuqoridagi savollarga javob topish orqali yechim topishga intilgan qahramon Nexlyudov haqida bo‘lib, yozuvchi o‘zida o‘tkazgan og‘riqni, o‘zi his qilgan muhitni kitobxonga yuqori tempda yetkazib berishga uringanini guvohi bo‘lamiz. Lev Tolstoyning ushbu asari insonni o‘ylantiradi, etini junjiktiradi, davr tuzumidan, ijtimoiy sharoitdan nafratlantiradi, go‘zal tuyg‘ularning yerga qorishishiga sabab bo‘lgan bu muhit badiiy asarni jonlantirganligiga, ana shu davrni his qilishga yordam berishi bilan qimmatlidir. Shu o‘rinda muallif o‘z asari qahramoniga ma’lum maqsad asosida harakatlanish mas’uliyatini yuklaydi. Mas’uliyat faqat muallifda emas, endi qahramonga ham ko‘chadi. Sababi ushbu roman qahramonining hamda jamiyatning asosiy muammosi sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- qahramon hayotning ma’nosini izlaydi;
- insonning hayotdagagi maqsadi nimadan iborat ekanligini qidiradi;
- jamiyatdagi mavjud tuzum kimga va nimaga xizmat qilishi kerakligini anglashga urinadi;
- ana shu davr qahramonlari kimlar ekanligi va qilayotgan ishlarini qay darajada adolatli ekanligini o‘laydi;
- davrning butun axloqiy qadriyatlar tizimini baholaydi;
- o‘zligini qidiradi;
  - din va e’tiqod masalasining inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatini topishga intiladi.

Ayni paytda jamiyatdagi muammolarning barchasi bu bilan kifoyalanmaydi. Buni hali davom ettirish mumkin biroq yana bir ahamiyatli jihatini unutmaslik lozimki, roman muallifi ushbu asarida o‘zini qiy nab kelgan masalalarni qahramoni Nexlyudov orqali olib chiqmoqchi edi va bu asarni biografik asar deb aytish orqali ham aytib o‘tmoqchi bo‘lgan maqsadimizni yana ham yaqinroq tushuntirgan bo‘lamiz. Qahramon tuzumning eski g‘oyalari, axloqiy tamoyillaridan alamzada bo‘ladi. Buni anglab ,tushunib yetishiga sabab esa o‘zi qilgan xató tufayli uni to‘g‘irlashga harakat qilishi yo‘lidagi harakatlari edi. Nexlyudov xatosini to‘g‘ilash yo‘llarini izlashga, hayotidagi o‘zgarishlar uchun o‘zi nimadir qilishga qodir ekanligini ko‘rsata oldi. U oldidagi xatosini kechirishi uchun kecha-kunduz tinim bilmay harakat qiladi va xuddi mana shu harakat boshlangan nuqtadan qahramon muammosi boshlanadi. Bu muammo Nexlyudovning toki to‘g‘ri yo‘lni topguncha davom etadi va yakunda muammo yechiladi. “U shu mahalgacha topolmay kelayotgan javob Isoning Petrga bergen javobining o‘zginasi edi. U shundan iborat: hammani har vaqt, hadeb kechiraverish kerak, zero dunyoda gunohdan pok odamning o‘zi yo‘qli, u boshqaga jazo bera olsin va uni tuzata olsin.”<sup>3</sup> Rus yozuvchisining ushbu romani orqali inson ruhiyatidagi o‘lim va tirilish holatlarini jamiyat kirdikorlarini fosh qilish orqali ochib berishga erishadi.

<sup>3</sup> Lev Tolstoy. <<Ilm-ziyo-zakovat>>, 2019-yil 572-bet

Asar qahramoni Nexlyudov bahor faslining birida turmush hayoti, o‘y-fikrlari va e’tiqodini o‘zgarishiga turtki bo‘lgan voqea orqali qalbini qaytadan uyg‘ota oladi. Bu oson bo‘lmasligi aniq edi. Bir hayotdan ikkinchi bir hayotga o‘tish hech bir banda uchun hech qachon oson bo‘lmagan. Yoshlik-go‘zal tuyg‘ularga, ko‘tarinkilikka, g‘ayrat va soddalikga burgangan palla. Yoshlik deganda sizning xayolingizga nimalar keladi? Shularning bari jamiyatdagi muhit, sharoit, jarayon bilan qorishiqligini bilamiz. Nexlyudov o‘siprin vaqtida o‘zgacha tuyg‘u bilan yashay boshladi. U oddiy xizmatkor qiz Maslovaga oshiq edi. Uning oldida hayajonni, o‘zga, anglab bo‘lmas olamni his qilardi. Faqat armiya xizmatidan so‘ng, u yerdagi muhit, do’stlar davrasining toza emasligi, softuyg‘ulardan ko‘ra, kiboriy atmosfera ustunligi, oddiylik Nexlyudovni bu kiborlar davrasida o‘zgacha vaziyatga tushirib qo‘yardi. Armiyadan so‘ng u nafsining quliga aylanib, Maslovani aldaydi va urushga ketadi.

Maslova nohaq qamalib ketgach va sud zalida oradan o‘n yil o‘tgach ular ko‘rishib qolishdi. Nexlyudov aybini yuvish uchun qattiq harakatga tushadi. Ammo Maslova umumman boshqa inson edi. Insonni yillar o‘zgartiradi, dardlar, alamlar o‘zgartiradi. Shu bilan birga anglashlar ham. Maslovani bu jirkanch ishga kirishiga sabab ham, zahar berib... o‘ldirishda ayblanishiga ham Nexlyudov o‘zini aybdor, Maslova oldida burchli deb his qiladi. O‘zidan nafratlansada, qanchalik kech bo‘lganini anglasada u bir narsadan yengil tortadi.. Qalbi uyg‘ongani va vijdonining tirikligidan. Chunki u qilgan xatosining badalini to‘lashga, Maslova bilan Sibirga bo‘lsa ham ketishga, unga uylanishga qat’iy qaror qabul qiladi.

Bu yo‘lda u nohaq qamalgan, qamoqda kasalga chalinib vafot etayotgan yosh, navqiron, endi jamiyatga qo‘shilishga harakat qilayotgan ko‘plab insonlarning umri katorgada o‘tayotganining guvohi bo‘ladi. U endi nafaqat o‘zidan, balki jamiyatdagi nohaqliklardan, o‘z tinchligi va boyishi uchun oddiy xalqdan foydalananayotgan o‘sha kibor ahlidan jirkanadi. Tenglik vaadolat so‘rab chiqqan siyosiy mahbuslar bilan suhbat jarayonida xalq qalbiga, turmushiga yanada yaqin kirib boradi.

Tolstoy ushbu asari orqali jamiyatdagi juda katta muammolarni olib chiqibgina qolmay, o‘z ruhiyatida kechayotgan og‘riqli savollariga javob izlaydi, go‘yo. Ushbu romanni yaratishdan maqsadi nima edi Tolstoyning? Nega aynan Maslova kabi ayollar taqdiri-yu, nega sud tizimini olib chiqdi? Nexlyudovning bunchalar o‘zgarishi va e’tiqodiy qarashlarining rivojlanishida faqat shu voqeagina turtki bo‘ldimi? Menimcha, buning bir qancha sabablari bor. Bular:

1. Rus inqilobi bo‘layotgan bir davrda bunday asarlarning yozilishi rus xalqiga va inqilobchilarga juda katta turtki vazifasini bajarardi. (Lekin Tolstoyning maqsadi ularga turtki berishdan iborat edi deb tushunmasligimiz zarur.)
2. Yer islohatini qayta qurish kerakligi. Feodal tuzum ya’ni yerga egalik qiluvchilarning rohatda yashashi oddiy dehqonning mehnati evaziga ekanligini bu vaqtga kelib, Tolstoy ancha tushunib yetgandi. U baxtni va tinchlikni oddiylikda ko‘ra

boshlagandi. Bu oddiy hayot u ichida yashayotgan dabdabali hayotdan qiziqarliroq va yoqimliroq tuyulardi unga.

3. Sud tizimini isloh qilish vaqt kelgandi. (Hattoki cherkovning bu vaqtda Tolstoyga nisbatan cherkovdan chetlashtirish qarori chiqib, unga taqilarni kuchaygan bir payt edi.)

4. Ichki ruhiy holatini va o‘zini qiyinalib yurgan savollariga javobni yozuvchi Nexlyudov orqali bayon qiladi.

5. Jamiyatdagi begunoh aholining, ayniqsa siyosiy mahbuslar va oddiy xalqning sud jarayonidagi va katorgaga tushish, yashash sharoitidagi farqini ochib berishga bo‘lgan harakatini ko‘ramiz. Bu katta jasorat edi. Katta yurak kerak edi o‘sha davrda bu asarni yozish, nazarimda.

Tolstoy ijodidagi oshkorlik uning boshqa yozuvchilardan farqlab turuvchi yagona narsa. Uning uchun haqiqat deb ko‘rsatilayotgan narsa emas, uning mohiyati qiziq. Shu sabab ham u o‘ziga ham oshkora inson. Ushbu romanida rus xalqining nochor hayotini ham ochib berar ekan, hayot haqiqatlari shu darajada ochib berilganki, o‘qigan inson qaysidir ma’noda qo‘rquvga tushishi tabiiy. Asarni o‘qir ekansiz undagi voqealardan ba’zan jirkanasiz, ba’zida esa hayratdan yoqa ushlaysiz, sizda bo‘ladigan umumiyl xulosa faqatgina yozuvchini mahoratiga tan berish bo‘ladi xolos. Shu qadar dunyoqarashi keng insonga aylanasizki, sizni tanigan insonlar tanimay qoladi. Sababi siz o‘zingiz uchun yangi dunyo, bir olam yangi taassurot hosil qilganingizni sezasiz. Hayotdagiadolatsizliklar shu qadar ko‘p va ayovsizki, Tolstoy shundayadolatsizliklarning bir nechtasini ko‘rsatib bera olgan. Asarning bosh g‘oyasi inson nafsi bilan uning kurashuvi, jamiyatdagi hayotni tizginini ushlab turgan amaldorlarningadolatsizliklarini ko‘rsatib berish edi. Aslida jinoyatga qo‘l urgan insonni u yashab turgan jamiyat majbur qilmaganmikan? Shu kabi savollar ko‘ndalang qo‘yilgan. Har bir insonni xayolot olamida o‘z o‘ylariga javob topa olmay qolishiga majbur qilib qo‘yadi. Jamiyatning shunday jirkanch tabaqa vakillari bo‘la turib, nega endi oddiy insonlar qiyinchilikga mahkum bo‘lishi kerak? Xo‘sish kim ko‘proq aybdor yoki razil. Insoniylik me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilayotganlarmi yoki shu insonlarga qulluq qiladiganlarmi? Savollar juda ko‘p, lekin javoblar juda oz. Shu bilan birga juda mavhum. Agar haqiqat ochilgudek bo‘lsa ham uni ko‘rmaganlikka olishadi yoki haqiqatni aytishga yuraklari dov bermaydi. Har doim yovuzlik bilan kurashamiz, lekin haqiqatdan qo‘rqamiz? Chunki hech kim begunoh emas. Hamma o‘zi bilan o‘zi yuzlashishga shunchalar qo‘rqadi. Qo‘rqlardan esa hech kimga, hatto o‘ziga ham naf yo‘q, shunday emasmi?! Tolstoy turli qatlAMDAGI, turlicha ijtimoiy jabhadagi odamlarning xususiyatlari, o‘y-fikrlari, dunyoqarashi, hayotiy muammolarga munosabati, nimani muammo deb bilishi kabi inson ruhiyatiga bog‘liq masalalarni mahorat bilan tasvirlab bera olgan.

O‘zbek adabiyoti vakillaridan biri bo‘lgan Asqad Muxtorning “Chinor” romanidagi inson va jamiyat muammosiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har bir

chinorning bir parchasini yozuvchi alohida muammo bilan tasvirlaydi. Har bir iborada yoki oddiy gap bilan berilgan jumlada ham odam deb atalmish mahluqotning aziz ekanligini ko'rsatib berishga uringanining guvohi bo'lamiz. Bilamizki, ushbu asar urush davridan keyin yozilgan va urushdan keyingi insonlar taqdirini qalamga olingan. "Chinor" romanining bosh g'oyasi hayotning boqiy, xalqning esa manguligi, uning asrlarga teng tajribasidan dunyoga keladigan yaxshilik, ezgulik kabi tushunchalarining abadiyligini ko'rsatib berish. "Chinor" romani Sharq adabiy an'analarini eslatuvchi yangi bir shaklda yozilgan asar hisoblanadi. Asar syujeti va kompozitsiyasini yaratishda Asqad Muxtor mumtoz adabiyotimizda mavjud bo'lgan qoliplash usulidan samarali foydalangan. Mana shu qoliplash usulining o'zida inson oldida turgan juda ko'plab muammolar va qidirib yurgan savollariga javoblar topishi mumkin.

Roman besh qissa, besh hikoyat va besh rivoyatdan tashkil topgan. Qissalarda hozirgi zamon voqealari tasvirlanadi. Hikoyatlarda esa bu voqealarning teran ildizlari yaqin o'tmish voqea-hodisalari haqida bahs yuritiladi. Rivoyatlar qadim afsonalarga borib tutashadi. Romandagi barcha qissa, hikoyat-u rivoyatlar ichki mantiq jihatidan bir markazga kelib birlashadi va kompozitsion bir butunlikni hosil qiladi. Ana shuning uchun ham ularni ulkan bir chinorning teran tomirlariga qiyos etish mumkin. Romanning asosiy g'oyasi chinor haqidagi ilk rivoyatdayoq aks etgan. Keyinchalik bu bosh g'oya rivoyatdan hikoyatga, hikoyatdan qissaga o'tib rivojlanib, takomillashib va chuqurlashib borgan. Shu jarayonda yozuvchi Ochil bobo, Orif, Azimjon, Komila, Matniyoz, Abdulahad qori, Said kabi rang-barang obrazlar yaratib, hayot haqiqatini keng ko'lamda tasvirlagan.<sup>4</sup> Yozuvchi hayotni kuzatish va olgan xulosalariga tayangan holda qalbida tug'ilgan mulohazalarini kitobxonga bayon etar ekan, o'quvchini ham o'ylashga, mushohada yuritishga undaydi. Ushbu roman sho'ro hokimi yati yillaridagi bosib o'tilgan yillarni tahlilga tortadi. Tuzum va jamiyatdagi muammolarni ayovsiz ochib tashlaydi. Asarda:

1. xalq kuchi bilan qurilgan jamiyatni idrok qilishga urinadi;
2. tuzumning ziddiyatlarini ochib berishga harakat qiladi;
3. sotsializmnning qusurlari, ma'muriy-buyruqbozlik tuzumiga aylanganini fosh etadi;
4. byurokratiyaning zulmkorligini ayovsiz ochib tashlaydi;
5. insonlarning urushdan keying davridagi jasorati-yuadolatsizliklarini ko'rsatib beradi;
6. farzandsizlik va farzandlari bo'la turib, o'z oilasiga xiyonat qilgan ayol holatini ko'rsatib beradi;
7. Mirzacho'lni obod qilish, paxta yerlarini kengaytirish evaziga ekologik muammolar kelib chiqqanini ko'rsatib beradi;

<sup>4</sup> XX asr O'zbek adabiyoti. S.Mirzayev.Toshkent. "Yangi asr avlod" 2005. 334-bet

8. jizzax qo‘zg‘oloni voqealaridan keyingi insonlar taqdiri qalamga olinadi;
9. ocharchilik yillaridagi qiyinchiliklar;
10. urushning daxshatlari va urushdan keying xalq boshiga tushgan savdolar ko‘rsatib beriladi;

Oq podsho davrida juda ham vahshiy hisoblangan general “Jezmo‘ylov” laqabli qonxo‘r xizmatchining aholiga qilgan yomonliklari, begunoh insonlarni sababsiz otib tashlaganligini va hatto bolalarni ham ayamaganligini, begunoh odamlarni o‘ldirib, so‘ng Mirzacho‘lga badarg‘a qilishlari, jamiyatdagi tuzumning naqadar chirkinlashganligidan darak beradi. Shunday paytda qahramonimiz Ochil bobo ham yosh, o‘g‘li Orif esa hali yosh bola edi. Xuddi shu surgunda odamlarning ochlikdan, sovuqdan, kasallikdan qirilib ketayotgani tasvirlanadi va ajablanarli tarafi shundaki, bolani ko‘rishga shuncha yo‘l bosib non olib kelgan qizcha o‘sha qonxo‘r “Jezmo‘ylov” ning qizi Qizimka edi. Bunday tasvirlar insonni beixtiyor entiktirib yuboradi.

Ochil bobo kenja qizi Umidanikiga borganda, uning jasoratiga qoyil qoladi va unga tasalli beradi. Umidaning kasbi shifokor. Yetti bolaning onasi. Doktor Qoriyeva! Ochil bobo barcha yaqinlarining g‘am- tashvishlaridan charchagan, toliqqan edi. Shuning uchun unga bola-chaqa bilan to‘lib toshgan uy ham halovatli va tinch tuyuldi. Lekin Umidaning boshidan ham juda og‘ir kunlar o‘tganligi, uning Germaniyaga qilgan safarida Frau Berta ismli doktorning o‘pka kasalliklari borasida qilgan ishlari yuzasidan tajriba maydoniga aylantirilgan holatini Ochil bobo va opasining o‘g‘li Azimjonga aytib berishini mutolaa qilarkansiz, inson degan mavjudodning naqadar vahshiy ekanligini guvohiga aylanasiz. Konda ishlagan insonlarning o‘pkasi kasal degan bahona bilan shu “Revier” degan kasalxonaga olib kelishadi. Lekin ular ko‘rinishidan soppa-sog‘ umuman kasalga o‘xshashmas edi. Umidaning vazifasi esa palatasidagi bemorning ahvoldidan xabardor bo‘lib turish, hamda ularning yotoq joylarini tartiblab berishdan iborat. Bemorlardan biri rus, biri nemis, biri esa fransuz edi. U bemorlar bilan rus hamda nemis tilida gaplashar edi. U kasalxonada ishlasa ham uning davo choralaridan mutloqo xabari yo‘q. Chunki uning vazifasiga bu ishlar kirmaydi. Aslida davolanish uchun jo‘natilgan “kasallar” soppa-sog‘ insonlar ekanligi, ulardan tarjiba uchun foydalanishayotganini keyin Umida payqab qoladi. Ungacha ikki kishi vafot etadi. Ularning o‘pkasini jami 4 ta operatsiya mobaynida kesib-kesib axiri insonni halok qilishar edi. Buni 1-bemor fransuz aytga olmay vafot etadi, sababi uning hatto gapirishga ham holi yo‘q edi. Ammo ikkinchi bemor Vatslav shu gapni aytib vafot etdi. Ya’ni bu yerdan qochish kerakligini, sog‘ odamlarning o‘pkasi kesib olinayotganligini aytadi va nemis bemor Umayderni umida bu yerdan qochirishga muvaffaq bo‘ladi. So‘ng mehmonxonaga kelib, bo‘lgan voqeani Frau Bertaning yuziga qotil hamda qassob ekanligini, hech narsadan tap tortmasligini aytib tashlaydi va matbuot konferensiyasini uyshtirishni ma`lum qiladi. Lekin Berta Umidaning

qo‘lidan hech ish kelmasligini, begona yurtda jim yurishi kerakligini, guvohlarning barchasi o‘lganligini aytadi. Shundan so‘ng uni kuzatish uchun ortidan odam qo‘yadi. Lekin Umida hech taslim bo‘lmassdan, barchasini guvoh bo‘lmasa ham aytaman deb turganda, Umayder hayoliga keladi. U butun shahar bo‘ylab Umayderni qidirishga tushadi, chunki birdan bir umidi shu Umayder edi. U ne-ne hasratda, qiynalib Umayderni qidiradi. Natijada bir ezma chol orqali uni topadi. Lekin shuncha payt mobaynida qidirgan guvohi guvohlik berishdan bosh tortadi. Bunga uning rafiqasi yo‘l qo‘ymaydi. Sababi Umida bu ishdan so‘ng uyiga ketib qoladi, lekin Umayder va uning oilasi shu yerda edi va ular doktor Bertadan qo‘rqishardi. Butun umidlari puchga chiqqan Umida matbuot konferensiyasini uyshtiradi va bo‘lgan voqeani ochiqdan-ochiq aytib beradi. Ushbu anjumanga na Berta, na Umayder hech biri qatnashmaydi. Savol-javoblardan so‘ng konferensiya tugab hamma tarqaladi va ertasi kuni matbuot anjumanidagi barcha gap-so‘zlar hech qanday o‘zgartirishlarsiz chop etilgan va doktor Berta o‘ldirilgan va o‘ldirgan odam ham o‘zining jinoyatini tan olgan edi. Sababi qotil ham bir vaqtlar juda kuchli sportchi bo‘lgani va uni konslagerga jo‘natishgani, u yoqdan “Revier” kasalxonasida o‘pasining yarmini aynan shu Berta kezib olganligini Umidaning gaplari haqiqatligini, u yerdan qochib qutilaganini va bir oylik umri qolgani haqida aytib beradi.

Inson yashar ekan uning qarshisidan hamisha yechilishi lozim bo‘lgan bir muammo beriladi va bu muammo uni yana bir pog‘onaga o‘sishiga ko‘maklashadi. Adabiyot aynan mana shu nuqtani insonga tushuntirishga urinadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. VIKTOR BORISOVICH SHKLOVISKIY LEV TOLSTOY (Biografik roman)  
Toshkent<<O‘ZBEKİSTON>>2021
2. Лев Толстой.”Тирилиш”. Илм-зиё-заковат”2019 йил
3. Озод Шарафиддинов“Ижодни англаш бахти” “ШАРК” нашриёт-матбаа акциадорлик  
компанияси бош таҳририяти Тошкент-2004
4. Н.Каримов, С.Мамажонов, Б.Назаров, У.Норматов, О.Шарафиддинов. XX  
аср ўзбек адабиёти тарихи. Т., Ўқитувчи, 1999
5. Ҳасанова Барно Юсуповна.Асқад Мухторнинг ҳикоянавислик маҳорати  
диссертацияси. Фарғона.2018
6. Соодат Муминова.Асқад Мухторнинг фалсафий-интеллектуал  
тирикаси.монографияси.
7. Matyaqubov S. Hozirgi o‘zbek hikoyalarda inson konsepsiysi va shaxs badiiy  
talqini: Filol.fan.nomz...diss.avtoref.-Toshkent, 2006
8. <https://kh-davron.uz/>. Umid Bekmuhammad “Tolstoyning o‘zbek suhabatdoshi”
9. <https://kh-davron.uz/muborak-kin>